

**O'ZBEKISTON HUDUDIDA QO'RIQXONA VA MILLIY BOG'LARDA
EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

Gofurova Vasila Odiljon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Xalqaro Turizm fakulteti bakalavriyat bosqichi talabasi

vasilagofurova289@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda ommalashayotgan ekoturizm tabiatga zarar yetkazmaslik yoki zararni minimallashtirish, tabiat bilan do'stona munosabatlarni shakllantirish, mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitni asrash va barqarorlikni ta'minlash, hududni rivojlanirish kabi bir qancha dolzarb maqsadlarni o'z ichiga olmoqda. Bu borada albatta tabiatni muhofaza qilish zonalaridan oqilona foydalanish juda muhim. Chunki hududning rekratsion salohiyati me'yorlariga rioya qilish turistik faoliyat barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Qo'riqlanadigan tabiiy hududlar esa o'z navbatida ekologik turizmni rivojlanirishning asosiy manbasini tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (milliy bog'lar, qo'riqxonalar, akvaparklar va boshqalar) gavjum shahar markazidagi turistik manzillardan o'zining boy va xilma-xil tabiiy resurslari, urbanizatsiya darajasi, aholining tabiatga bo'lган ijobiy munosabati bilan keskin ajralib turadi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, barqaror turizm, rekratsion salohiyat, tabiiy resurslar, milliy bog'lar, qo'riqxonalar, akvaparklar, urbanizatsiya, kemping, glemping, o'tov, ekouylar.

Dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sayohat turlaridan biri ekoturizm bugun atrof-muhit haqida qayg'uradigan sayyoohlар orasida juda mashhur. "Ekologik turizm yoki ekoturizm — tabiatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o'rganish va zavqlanish uchun buzilmagan tabiiy hududlarga nisbatan atrof-muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish ushbu faoliyatdan foyda olish."¹ Ayniqsa atrof-muhitning yomonlashishi bilan bog'liq muammolar ko'payib borayotgan bir davrda ushbu turizm turi insonlarning tabiatga ijobiy munosabatda bo'lismaga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga undaydi. So'nggi o'n yilliklarda ekoturizmni jadal sur'atlarda o'sishi ham biologik xilma-xillikni saqlab qolishga va turistlarning o'ziga xos faoliyat bilan mahalliy aholini moliyaviy tarafdan qo'llab quvvatlashga o'zining ulkan hissasini qo'shamoqda. Shunday qilib, ekoturizm noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlarini muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liq, chunki ularning aksariyati ekzotik va

¹ Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi

ekotur obyektlarga aylanadi. Bu nafaqat hayvonlar va o'simliklarga, balki ekotizimga va umuman tabiiy komplekslarga ham tegishli. Ya'ni qanchalik turistlarni ekologik turizmga jalb qila olsak, davlatlarning qadimiy obidalari va majmualari yaxshi saqlanadi. Ushbu sayohat turida turistlarning e'tiborini tortuvchi va qiziqish uyg'otadigan asosiy jihat bu o'sha geografik hududdagi o'zgarmas tabiiy komplekslarning mavjudligi, maksimal biologik xilma-xillik ekvatorial va tropik o'rmonlar, savannalar va tog'li hududlar. Jahan miqyosida esa tabiat turizmiga bo'lган asosiy talabni keltirib chiqaradigan asosiy mintaqalar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika. Yevropa xalqaro turizm bozorida juda ilg'or.

Chunki hududning iqlim sharoiti juda qulay va qadimdan sviliziatsiya rivojlangan. Bundan tashqari ekoturizmning rivojlanishi uchun ham Yevropada milliy bog'lar, qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari va qo'riqlanadigan landshaftlar bir talay. Ekoturizm sohasida O'zbekiston Respublikasi ham kuchli turistik potensialga ega davlatdir. Turistik salohiyat jihatdan dunyoning 15ta yetakchi davlatlari qatoriga kirgani va Markaziy Osiyoda asosiy o'rinni egallagani buning yaqqol isbotidir. Sababi mamlakatimiz nafaqat me'moriy va tarixiy obyektlar bilan balki o'zining boy landshaftlari, xilma-xil o'simlik va hayvonot olami bilan ham chet ellik sayyoohlarni o'ziga jalb eta oladi. O'zbekistonning janubiy tog' tizmalari, Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog'lari, Qizilqum yaqinligi, baliqlarga boy ko'llar alohida qiziqish uyg'otmoqda. Chotqol, Zomin, Nurota, Hisor, Ugom-Chotqol milliy bog'i, Jayron ekomarkazi va boshqalar qo'riqxonalari katta ekoturizm imkoniyatlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagagi UP- 5326-sonli "O'zbekiston Respublikasining sayyoqlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni², shuningdek ichki turizmni jadal rivojlantirish mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida fuqarolarni mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklari bilan tanishtirish. O'zbekistonda ekoturlarni amalgaloshirishning asosiy omili tabiatning xilma-xilligi, ekzotik hayvonlar va o'simlik dunyosining boyligi, shuningdek, ajoyib kontrastli eng go'zal tog' landshaftidir. O'zbekistonda sayohatlarni tashkil qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud, bular milliy bog'lar va qo'riqxonalardir.

Mamlakatimizda Amudaryo davlat biosfera qo'riqxonasidan pastda 8 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta milliy park, noyob hayvonlar sonini ko'paytirishga ixtisoslashgan respublika "Ecocenter Jayron" va 12 ta davlat qo'riqxonalari (Dengizko'l, Oktau, Kara-Kir, Arnasai, Saygachi) mavjud, Sudochie, Muborak, Karnabchul, Koshrabat, Nurobod, Kumsultan, Xadicha). Respublika o'z iqlimi bilan barcha to'rt faslning go'zalligini namoyish etadi. Shu bilan birga O'zbekistonda 8000 dan ortiq tabiat yodgorliklari va 38 million hektar ov va baliq ovlanadigan joylar mavjud. Hayvonot

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagagi UP- 5326-sonli farmoni

dunyosiga 97 turdag'i o'txo'rlar, 424 turdag'i qushlar, 58 turdag'i sudralib yuruvchilar va 83 turdag'i baliqlar kiradi. O'simlik dunyosida 4100 o'simlik turi, 3000 dan ortiq yovvoyi o'simliklar mavjud bo'lib, ularning 9% endemikdir.³ Ekologiya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining davlat qo'riqxonalari bufer zonalari, milliy tabiat bog'lari, pitomniklar (qo'riqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno), o'rmon va o'rmonov xo'jaliklari, tog'li va cho'l hududlari hamda suv ob'yektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida (ekohududlar) joylashgan yer uchastkalari kompleks turizm xizmatlarini yo'lga qo'ygan holda turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkorlik sub'yektlariga beriladi.⁴ Qolaversa, Ekologiya vazirligi tomonidan ekohududlarni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi. Dasturlar klasterlarda turizm xizmatlarini ko'rsatishda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik masalasiga qaratilgan. Qarorga ko'ra, quyidagilar ham amalga oshiriladi:

Eko-hududlarning mavjud tabiiy resurslaridan kelib chiqqan holda turistik so'qmoqlar, selfi zona va piknik zonalar, manzalari tomosha maydonchalari va hayvonlarni masofadan kuzatish imkonini beruvchi fototurlar tashkil qilish;

chiqindilarni tashlash va ekohududda o'rnatiladigan yo'l ko'rsatkichlari nuqtalarini belgilash hamda ekologik talablarga javob beradigan sanitariya-gigiyena shoxobchalarini joylashtirish;

kemping, glemping, o'tov, ekouylar va boshqa turdag'i joylashtirish vositalarini o'rnatish;

ekohududlarga kirish qismida elektromobillar uchun quvvatlantirish stansiyalari, ko'chma restoranlari bo'lgan avtoturargohlar qurish;

ekohududlarda turistlar o'zлari kerakli ma'lumotlarni olishlari uchun tashrif markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ushbu tashabbuslarning yorqin samarasini sifatida davlatimiz tasarrufidagi bir necha qo'riqxonalarimizda turistlar sonining ko'payganini keltirish mumkin. Qo'riqxonalar faqatgina yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot olamine saqlabgina qolmay, ular turistlarga O'zbekistonning xilma-xil va boy tabiatini namoyon etmoqda. Ulardan eng mashhuri "Hisor" davlat qo'riqxonasi bo'lib, hozirgi kunda uning maydoni 80986 hektarni tashkil etadi. 1914-yilda Qizilsu va Miraki qo'riqxonalarining birlashuvidan tashkil topgan ushbu qo'riqxona yurtimizning eng so'lim va ekoturistik obyektlarga boy qismidir. Qo'riqxonada piyoda va otda sayr qilish uchun tashkil etilgan maxsus marshrutlar va sharshara atrofida rasmga tushish va tabiatni tomosha qilish uchun tashkil etilgan ajoyib landshaft esa ko'plab turistlarning qiziqishini tobora orttirmoqda⁵. Yana shunday ekoturistik potensialga ega qo'riqxonalardan bir bu Nurota

³ Unesco org.

⁴ Prezidentning «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori

⁵ <https://eco.gov.uz/en/site/news?id=2040>

davlat qo'riqxonasidir. O'zining maftunkor manzarasi bilan ajralib turuvchi ushbu qo'riqxona maydoni 17752 hektardan iborat bo'lib, yong'oq mevali archa, tog' va o'rmon ekotizimlarini hamda Seversov qo'chqorining noyob populyatsiyasini saqlab kelmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston hududida Surxon tog' o'rmon qo'riqxonasi, Zarafshon dala-to'qay qo'riqxonasi, Qizilqum to'qay-qumli qo'riqxonasi, Zomin tog' archa qo'riqxonasi, Kitob geologik qo'riqxonasi, Chotqol tog' o'rmon biosfera qo'riqxonasi, Quyi Amudaryo davlat biosfera qo'riqxonasi kabi ko'plab qo'riqxonalar mavjud bo'lib, ular yo'qolib borayotgan flora va fauna olamini asrash, turli ilmiy izlanishlar va tajribalar uchun qulay manzil bo'lish bilan bir qatorda ko'plab mahalliy va chet ellik turistlarga tabiatning ko'z ilg'amas go'zalliklarni ko'rish imkoniyatini ham taqdim etib kelmoqda.

Mamlakat ekoturizmni rivojlantirishda qo'riqxonalar bilan bir qatorda milliy bog'larning ham hissasi katta. Boisi milliy bog'lar qo'riqxonalardan farqli o'laroq turistlarga ko'proq dam olish uchun imkoniyatlar taqdim eta oladi. Bu borada 1872-yil AQSH da tabiatni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan Yelouston milliy bog'ini misol keltirish mumkin. Chunki dunyodagi birinchi tashkil etilgan ushbu milliy bog' bugun tom ma'noda o'zining maqsad va vazifalariga erishib kelmoqda.⁶ Xususan, ushbu manzilda tashkil etilgan turli turistik zonalar tabiatsevar sayyoohlarga xizmat qilish bilan bir qatorda ona tabiatning asl go'zalligini saqlab kelmoqda. Mamlakatimizda ham bir qancha tabiiy resurslarga boy manzillar bir talay bo'lib, hozirda ularni rivojlantirish va samarali foydalanish borasida koplab chora tadbirlar olib borilmoqda. O'zbekistonning yana bir milliy g'ururi - yaqinlarda "O'zbek Shveysariyasi" nomini olgan mamlakatning asosiy kurorti - Zomin milliy tabiat parkidir. Bu hudud azaldan o'ziga xos tabiatini va shifobaxsh havosi bilan mashhur. Maydoni 25 hektardan ortiq bo'lgan bu milliy bog' Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Turkiston tog' tizmasining shimolida joylashgan. Milliy bog'da bo'ri, burgut, chittak, quyon, turkiston agamasi, turkiston boyo'g'lisi, qorayaloq, ko'l qurbaqasi, toshli savsar va boshqa ko'plab hayvonlar va qushlar yashaydi. O'rmonzorlar orasida, turkiston yelisi, o'rmon olmaxoni va hattoki oq tirnoqli ayiq ham yashiringan. Zomin milliy bog'ining turistik istiqboli sifatida u yerdan unchalik uzoq bo'limgan joyda, Zomin sanatoriyasining borligidir. Hudud ichidagi dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriylar, dam olish uylari va bolalar oromgohlari esa ko'p yillar davomida barcha o'zbekistonliklar uchun sevimli dam olish maskaniga aylanib bormoqda⁷.

Yurtimizdag'i yana bir ekoturistlar uchun jozibali va eng katta milliy bog'lardan biri Ugom- Chotqol milliy bog'gidir. Bog'ning hududi antropogen ta'sirga ega emas va mintaqaning ekotizimini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega, uning maydoni 574,6

⁶ <https://www.nps.gov/yell/index.htm>

⁷ <https://uzbekistan.travel/uz/o/zomin-milliy-tabiat-bogi/>

ming gektarni tashkil etadi va ma'muriyati Toshkent shahridan oltmisht kilometr uzoqlikda joylashgan G'azalkent shahrida, Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Bu yerdagi iqlim va floraning xilma-xilligi balandlikning farqi bilan bog'liq (1000 dan 4000 m gacha). Bu yerda sayyoohlar qorli tog' cho'qqilariga ham, tog' dashtlariga ham, o'rmonlar va o'tloqlarga ham, olcha o'riklari, olma daraxtlari va yong'oqlarga 1000 dan 1200 metrgacha balandlikda, archa, yovvoyi olcha, qayin o'sadigan, chinor o'sadigan 1200 metrdan baland o'rmonlarga qoyil qolishlari mumkin, 1800-2000 metr balandlikda archa o'rmonzorlari va 2500 ming metrdan yuqori qismida subalp o'simliklari mavjud, parkning hayvonot dunyosi xilma-xil bo'lib, unga sut emizuvchilarning 40 ga yaqin turi kiradi: bu oq tirnoqli ayiq va maral, yovvoyi cho'chqa va bo'ri, cho'chqa va bo'rsiq, tulki va tog' echkisi, qor qoploni, shuningdek, ikki yuzdan ortiq qush turlari: lochin, boyo'g'li, qo'zichoq. Qo'riqxona, milliy bog' va muhofaza qilinadigan joylarning yanada turistik salohiyatini oshirish maqsadida qo'shimcha bir qator takliflar va g'oyalar berish mumkin. Masalan:

1. Dastlab turizmni boshqarish rejasini tuzish lozim. Ya'ni boshqaruven rejasi muhofaza qilinadigan joylarning umumiyy strategiyasiga mos kelishi kerak. Inshootlarning uslubi va joylashishi, chiqindi suvlarni tozalash va axlat yig'ish, ochiq joylarni saqlash va boshqalarni hisobga olgan holda qurilish me'yordari belgilanishi kerak.

2. Hududda turizm rivojining uzluksiz tekshiruvini olib borish. Bu kabi tekshiruvlarni olib borishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish ayni muddao: tabiiy muhitga ta'sir; resurs ziddiyatlarini hal qilish; mintaqaviy hamkorlik; suv ta'minoti; qurilish sifati va boshqalar.

3. Hududni rayonlashtirish. Hududiy resurslarni boshqarishning eng soda usullaridan biri bu rayonlashtirish ekanligini xalqaro standardlar ham tasdiqlagan. Shunga ko'ra muhofaza etiladigan hududni maqsadiga ko'ra turli zonalarga ajratish mumkin:

- xavfsizlik zonalari.
- piyodalar uchun maxsus marshrutlar. Transport yoki piyoda yurishga mo'ljallangan yo'laklar va turistik zonalar.
- binolar zonasasi (mehmonxona, restoran va do'kon).

4. Parkning turistik infratuzilmasini yaratish. Bunday hududlar uchun obyektlar va inshootlar qurilishi ham tabiatni muhofaza qilishga ham dam olish qulayligini oshirishga yordam beradi. Inshootlarni asosan mahalliy materiallardan (tosh, yog'och, bambuk, loy-g'isht) qurish ham park muhiti bilan uyg'unlik beradi, ham odatiy turizmga nisbatan ekoturizm markazidagi bitta xonani jihozlash qiymatidan 4-5 barobar arzon tushadi. Asosiysi turar joylar sayyoohlar uchun kamtarin, ammo qulay, toza va hech kimga tahdidsiz bo'lishi kerak

5. Ekologik texnologiyalardan foydalanish.

- suvni isitish uchun va boshqa ehtiyojlar uchun quyosh energiyasidan foydalanadigan moslamani joylashtirish;;
- yomg’ir suvlarini yig’ish va ulardan foydalanish;
- chiqindilarni qayta ishslash;
- konditsioner o’rniga tabiiy shamollatish;
- bog’lar, “akvakultura” va boshqalarni yaratish orqali oziq-ovqat bilan o’zini o’zi ta’minlashning yuqori darajasini saqlab qolish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barqaror turizmning bir turi bo’lgan ekoturizmni rivojlantirish orqali qo’riqlanadigan hududlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo’shishi mumkin. Bundan tashqari mintaqaga xalqaro e’tibor va sarmoyalarni jalb qilishda yordam berishi va mahalliy aholi uchun yangi ish o’rinlarini yaratishi mumkin. Turli xil ekskursiyalar va turistik tadbirlar tashkil etish orqali esa milliy bog’ va qo’riqxonalarning madaniy va ijtimoiy hayotini yanada rang-barang qilish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagagi UP- 5326-sonli farmoni
2. Prezidentning «O’zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi qarori.
3. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi
4. L. Sh. Egamberdiyeva. “Ekoturizm”. O’quv qo’llanma – Toshkent 2021
<https://uzbekistan.travel/uz/o/zomin-milliy-tabiat-bogi/>
<https://www.nps.gov/yell/index.htm>
<https://eco.gov.uz/en/site/news?id=2040>
<http://forum.oyina.uz/uz/posts/21028>